



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI
VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK
VAZIRLIGI**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR SIYOSATI VA SPORT VAZIRLIGINING
QARORI**

Maktabgacha va maktab ta'limi, madaniyat va sport muassasalari pedagog va rahbar xodimlarining bazaviy tarif stavkalari hamda tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari xodimlarining lavozim maoshlari miqdorlarini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ish haqi, pensiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida" 2023-yil 17-noyabrdagi PF-196-sun Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Yoshlar siyosati va sport vazirligi hamda Madaniyat vazirligi **qaror qiladi**:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ish haqi, pensiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida" 2023-yil 17-noyabrdagi PF-196-sun Farmoniga muvofiq 2023-yil 1-dekabrdan boshlab budjet muassasalari va tashkilotlari xodimlarining ish haqi miqdorlari oshirilishi munosabati bilan maktabgacha va maktab ta'limi, madaniyat va sport muassasalari pedagog va rahbar xodimlarining bazaviy tarif stavkalari hamda tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari xodimlarining bazaviy tarif stavkalari miqdorlari O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Yoshlar siyosati va sport vazirligi hamda Madaniyat vazirligi tomonidan qayta ishlab chiqilganligi inobatga olinsin.

2. Quyidagilar:

Maktab ta'limi, madaniyat va sport muassasalari pedagog xodimlari mehnatiga haq to'lash bo'yicha bazaviy tarif stavkalari miqdorlari 1-ilovaga muvofiq;

Maktab ta'limi, madaniyat va sport muassasalari rahbar xodimlari mehnatiga haq to'lash bo'yicha bazaviy tarif stavkalari miqdorlari 2-ilovaga muvofiq;

Maktabgacha ta'lim xodimlari mehnatiga haq to'lash bo'yicha bazaviy tarif stavkalari miqdorlari 3-ilovaga muvofiq;

Tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari xodimlarining lavozim maoshlari miqdorlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Yoshlar siyosati va sport vazirligi hamda Madaniyat vazirligi tizimidagi ta'lim muassasalari rahbarlari, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi, yoshlar siyosati va sport hamda madaniyat boshqarmalari boshliqlari, vazirliklar tasarrufidagi respublika tashkilotlari direktorlariga:

maktabgacha va maktab ta'limi, madaniyat va sport muassasalari rahbar va pedagog xodimlarining ish haqlarini ilovadagi bazaviy tarif stavkalar bo'yicha o'z vaqtida qayta hisob-kitob qilish;

maktabgacha va maktab ta'limi, madaniyat va sport muassasalari rahbar va pedagog xodimlarining mehnatiga haq to'lash bo'yicha bazaviy tarif stavkalar miqdorlari o'zgarishi munosabati bilan qo'shimcha talab etiladigan mablag'larni ajratish yuzasidan tegishli iqtisodiyot va moliya organlari bilan ish olib borish vazifalari topshirilsin.

4. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Madaniyat va turizm vazirligi, Yoshlar siyosati va sport vazirligining "Maktabgacha va maktab ta'limi, madaniyat va sport muassasalari pedagog va rahbar xodimlarining bazaviy tarif stavkalar hamda tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari xodimlarining lavozim maoshlari miqdorlarini tasdiqlash to'g'risida" 2023-yil 28-apreldagi 14 k/k-, 6-Q/Q-, 01-15-09-, 08 kk-son qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri o'rribbosari T. Komilov, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirining o'rribbosari R. Turdiboyeva, Yoshlar siyosati va sport vaziri o'rribbosari M. Ismoilov, Madaniyat vaziri o'rribbosari M. Madjidov zimmasiga yuklansin.

6. Mazkur qaror 2023-yil 1-dekabrdan boshlab kuchga kiradi.

**Maktabgacha va maktab
ta'limi vaziri**

Toshkent sh.,
2023-yil 30 - noyabr,
554 -son



X. Umarova

**Kambag'allikni qisqartirish
va bandlik vaziri**

Toshkent sh.,
2023-yil 30 - noyabr,
24-8/9-1 -son



B. Musaev

Madaniyat vaziri

Toshkent sh.,
2023-yil 30 - noyabr,
10/1 -son



O. Nazarbekov

**Yoshlar siyosati va sport
vaziri**

Toshkent sh.,
2023-yil 30 - noyabr,
3d-4/14 -son



A. Ikramov

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha
va maktab ta’limi vazirligi, Kambag‘allikni
qisqartirish va bandlik vazirligi, Yoshlar
siyosati va sport vazirligi hamda
Madaniyat vazirligining
2023-yil 30-noyabr dagi
554, 20-09-1, 10/1 va 52-65 son qaroriga
1-ILOVA

**Maktab ta’limi, madaniyat va sport muassasalari pedagog xodimlari mehnatiga haq
to‘lash bo‘yicha bazaviy tarif stavkalari miqdorlari**

so ‘m

Lavozimlar nomi	Tarif stavkalari miqdorlari:				
	oliy malaka toifali	birinchi malaka toifali	ikkinci malaka toifali	oliy ma’lumotli	o‘rta maxsus ma’lumotli
1. Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarining o‘qituvchisi, o‘qituvchi-logopedi, logopediya shoxobchasi mudiri, o‘qituvchi-defektolog, inklyuziv ta’lim tizimi joriy qilingan va tayanch korreksion sinflar ochilgan umumta’lim maktablarining maxsus pedagogi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalar qoshidagi o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish va psixologik xizmat sho’basi xodimlari	4 064 867	3 678 383	3 301 057	2 948 543	2 756 196
1.1. Yoshlar yetakchisi, ijodiy-madaniy masalalar bo‘yicha targ‘ibotchi				2 948 543	
2. Respublika muassasa va tashkilotlari metodistlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalar metodistlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalarilarining o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish va psixologik xizmat sho’basi metodistlari, tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlari metodistlari				4 064 867	
3. Maktabdan tashqari ta’lim muassasaning o‘qituvchi-treneri, oliv sport mahorati maktablari, sport turlari bo‘yicha ixtisoslashtirilgan olimpiya zaxiralari bolalar-o‘smlar sport maktablarining, bolalar sport maktablarining instruktor-metodistlari, sport psixologi	2 986 795	2 790 057	2 611 241	2 433 535	2 262 060
4. Bolalar musiqa va san’at maktabi o‘qituvchisi	3 100 074	2 901 373	2 703 933	2 513 411	2 330 460
5. Bolalar musiqa va san’at maktabi konsertmeysteri	2 703 933	2 513 411	2 330 460	2 154 880	1 989 791
6. Barcha tipdagi muassasalarining tarbiyachisi, katta tarbiyachisi (tarbiyachi-metodist)	4 064 867	3 678 383	3 301 057	2 948 543	2 067 145
6.1. Umumiy o‘rta tipdagi muassasalar psixologlari, «Mehribonlik» uylari va bolalar shaharchalari psixologlari	3 219 375	3 034 668	2 841 782	2 653 691	2 480 576
6.2. Barcha tipdagi muassasalarining psixologi (6.1.-bandda ko‘rsatilgandan tashqari) va maktabdan tashqari muassasalar instruktor-metodisti (3 va 8-bandlardan ko‘rsatilgandan tashqari)	1 802 617	1 675 599	1 553 642	1 436 586	1 326 526
7. Barcha muassasalaridagi metodist, pedagog-tashkilotchi, to‘garaklar, studiyalar, seksiyalar rahbarlari, barcha ixtisosliklar instruktorlari, akkamponiator, musiqa rahbari, ekskursovod, madaniyat ishlari bo‘yicha tashkilotchi (8-bandda ko‘rsatilgandan tashqari).	1 586 277	1 459 280	1 337 344	1 220 982	1 110 328

Lavozimlar nomi	Tarif stavkalari miqdorlari:				
	oliy malaka toifali	birinchi malaka toifali	ikkinchi malaka toifali	oliy ma'lumotli	o'rta maxsus ma'lumotli
8. «Barkamol avlod» bolalar maktablarining to'garak rahbarlari, instruktor-metodistlar va metodistlar, «Mehribonlik» uylari musiqa rahbarlari va trener yo'riqchisi, bolalar shaharchalari musiqa rahbarlari	2 736 330	2 517 264	2 306 922	2 106 193	1 915 315
9. Kutubxona mudiri				2 118 550	1 941 692
10. Kutubxonachi				1 772 354	1 683 737

Maktabdan tashqari muassasalar bo'lim, seksiya, laboratoriya, kabinet mudirining ish haqi miqdori (kontingentdan qat'i nazar) ikkinchi malaka toifali to'garak rahbarining ish haqiga teng miqdorda belgilanadi.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi mакtablar to'garak rahbarlarining bazaviy tarif stavkasi miqdori davlat umumiyl o'rta ta'lim muassasalari oliy ma'lumotli o'qituvchisi bazaviy tarif stavkasining 80 foizi miqdorida belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha
va maktab ta’limi vazirligi, Kambag‘allikni
qisqartirish va bandlik vazirligi, Yoshlar
siyosati va sport vazirligi hamda
Madaniyat vazirligining
2023-yil 30 noyabr dagi
554, 24 991, 10/1 va 32-67 son qaroriga
2-ILOVA

**Maktab ta’limi, madaniyat va sport muassasalari rahbar xodimlari mehnatiga haq to‘lash
bo‘yicha bazaviy tarif stavkalari miqdorlari**

so ‘m

Lavozimlar nomi	Tarif stavkalari miqdorlari			
	I guruh	II guruh	III guruh	IV guruh
1. Rahbar xodimlar:				
1.1. Umumiy o‘rta ta’lim tashkiloti direktori	4 891 648	4 624 264	4 360 919	4 084 180
1.2. «Mehribonlik» uyi direktori	4 360 919	4 084 180	x	x
1.3. Maktabdan tashqari muassasa direktori	1 802 617	1 675 599	1 553 642	x
1.4. «Barkamol avlod» bolalar maktabi direktori	2 794 060	2 597 180	2 408 144	x
1.5. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi «Mehribonlik» uylari respublika sog‘lomlashtirish oromgohi rahbari	3 924 827	3 675 762	3 675 762	x
1.6. Oliy sport mahorati maktabi, sport turlari bo‘yicha ixtisoslashtirilgan olimpiya zaxiralari bolalar-o‘smirlar sport maktabi direktori	3 188 701	x	x	x
1.7. Bolalar sport maktabi direktori	2 986 795	2 790 057	2 611 241	x
1.8. Bolalar musiqa va san’at maktabi direktori	3 720 086	3 481 647	x	x
2. Rahbarlarning o‘rinbosarlari:				
2.1. Umumiy o‘rta ta’lim tashkiloti direktorining o‘quv ishlari bo‘yicha o‘rinbosari, ixtisoslashtirilgan fanlar bo‘yicha o‘rinbosari, ma’nnaviy-ma’rifiy ishlari bo‘yicha o‘rinbosari, sport ishlari bo‘yicha o‘rinbosari	4 624 264	4 360 919	4 084 180	3 814 503
2.2. Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarining Vatanparvarlik ruhida yoshlarni tayyorlash bo‘yicha direktor o‘rinbosari-Harbiy chaqiriqqacha tayyorgarlik rahbari			2 948 543	
2.3. «Mehribonlik» uyi direktorining o‘rinbosari	4 084 180	3 814 503	x	x
2.4. Maktabdan tashqari muassasa direktorining o‘rinbosarlari (2.9.-banddan tashqari)	1 675 599	1 553 642	1 436 586	x
2.5. «Barkamol avlod» bolalar maktabi direktorining o‘rinbosarlari (2.9.-banddan tashqari)	2 597 180	2 408 144	2 226 712	x
2.6. Oliy sport mahorati maktabi, sport turlari bo‘yicha ixtisoslashtirilgan olimpiya zaxiralari bolalar-o‘smirlar sport maktabi direktorining o‘rinbosari	2 986 795	x	x	x
2.7. Sport maktabi direktorining o‘rinbosari, filial direktorlari	2 790 057	2 611 241	2 433 535	x
2.8. Bolalar musiqa va san’at maktabi direktorining o‘quv-ma’rifiy ishlari bo‘yicha o‘rinbosari	3 481 647	3 244 723	x	x
2.9. Direktorning xo‘jalik ishlari bo‘yicha o‘rinbosari	2 078 589	1 919 115	1 765 457	1 618 076

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha
va maktab ta’limi vazirligi, Kambag‘allikni
qisqartirish va bandlik vazirligi, Yoshlar
siyosati va sport vazirligi hamda
Madaniyat vazirligining
2023-yil 20-noyabr dagi
554, 24-99, 1011 va 32-15 son qaroriga
3-ILova

Maktabgacha ta’lim xodimlari mehnatiga haq to‘lash bo‘yicha bazaviy tarif stavkalari miqdorlari

1. Davlat maktabgacha ta’lim pedagog xodimlari:

so‘m

T/r	Lavozimlar nomi	Tarif stavkalari miqdorlari:				
		oliy malaka toifali	birinchi malaka toifali	ikkinci malaka toifali	oliy ma’lumotli	o‘rta maxsus ma’lumotli
1	Til o‘qituvchilari, o‘qituvchi-defektolog, o‘qituvchi-logoped, psixologlar, olivy ma’lumotli tayyorlarlik (5 yoshdan 6-7 yoshgacha) guruhi tarbiyachilar	3 251 893	3 065 321	2 870 486	2 680 494	1 867 561*
2	Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti o‘qituvchisi (1-banddagidan tashqari)	2 513 573	2 343 407	2 178 277	x	1 867 561
3	Tarbiyachi-metodist, tarbiyachi (oliy ma’lumotli tayyorlarlik (5 yoshdan 6-7 yoshgacha) guruhi tarbiyachilaridan tashqari)	2 343 407	2 178 277	2 019 735	1 867 561	1 724 482
4	Musiqqa xodimi, xoreograf, barcha ixtisosliklar yo‘riqchilari	2 062 161	1 897 067	1 738 548	1 587 278	1 443 427
5	Olyi yoki o‘rta maxsus, kasb-hunar pedagogik ma’lumotli tarbiyachi yordamchisi			1 573 807		
6	Olyi, o‘rta maxsus, kasb-hunar nopedagogik ma’lumotli va umumiy o‘rta ma’lumotli tarbiyachi yordamchisi			1 311 505		

*Mazkur bazaviy tarif stavkasi oliv ta’lim muassasalarining pedagogika yo‘nalishlarida kunduzgi, kechki, sirtqi bo‘limlarning 3-4-kurslarida o‘qiyotgan shaxslar tomonidan bajarilgan ishlarni haq to‘lashda qo‘llaniladi.

2. Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori:

so‘m

T/r	Lavozim nomi	Bazaviy tarif stavkalari miqdorlari (so‘m)	
		I guruh	II guruh
1	Direktor	2 765 981	2 577 748

Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti direktorining bazaviy tarif stavkasi tashkilotlar guruhidan kelib chiqib belgilanadi. Bunda 9 ta va undan ortiq guruhlari mavjud davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari I guruh, 8 tagacha guruhlari mavjud davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari II guruh hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha
va maktab ta’limi vazirligi, Kambag‘allikni
qisqartirish va bandlik vazirligi, Yoshlar
siyosati va sport vazirligi hamda
Madaniyat vazirligining

2023-yil 30 - noyabr dagi
554, 24-99-1, 10/1 va 52-15 son qaroriga
4-ILLOVA

**Tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlari xodimlarining lavozim
maoshlari miqdorlari**

so ‘m

T/r	Lavozimlar nomi	Bazaviy tarif stavkalari miqdori				
		Shaharlar-viloyatlar markazlari, Nukus shahri va qishloq tumanlari		Shahar tumanlari		Viloyatga bo‘ysunuvchi shaharlar
		I guruh	II guruh	I guruh	II guruh	
1	Boshliq	3 611 253	3 395 795	3 395 795	3 183 658	3 395 795
2	Boshliq o‘rinbosari	2 977 718	2 775 019	2 977 718	2 775 019	2 775 019
3	Sho‘ba mudiri	2 977 718	2 775 019	2 977 718	2 775 019	2 775 019
4	Bosh mutaxassis	2 636 202	2 447 863	2 636 202	2 447 863	2 447 863
5	Mutaxassis	1 717 796	1 586 010	1 717 796	1 586 010	1 586 010